

# Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar - sentabr

## E'tibor bering!

- 2019 – yilning yanvar – sentabrida kichik tadbirkorlikning YHMdagi ulushi 79,8 %ni tashkil etdi.
- 3,6 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar tashkil qilindi.
- 2019 – yilning yanvar – sentabrida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 8,1 birlikni taskil qildi.

2019 yilning yanvar – sentabrida 3,6 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,6 martaga ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda (35,8 %), sanoatda (22,4 %), qurilishda (14,1%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (9,3%), yashash va ovqatlanishda (7,4 %), tashish va saqlashda (3,0 %) tashkil etilgan.

## 2019 yil yanvar – sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Savdo



Sanoat



Qurilish



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi




Yashash va ovqatlanish



Tashish va saqlash

**2019 yilning yanvar- sentabrida kichik tadbirkorlikning  
asosiy ko'rsatkichlari**


	O'lchov birl.	2018 y.	2019 y.	(+-)
<b>Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni</b>	<b>birlikda</b>	<b>12133</b>	<b>14763</b>	<b>2630</b>
<b>Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni</b>	<b>birlikda</b>	<b>2253</b>	<b>3593</b>	<b>1340</b>
<b>YHM</b>	<b>%</b>	<b>81,9</b>	<b>79,8</b>	<b>-2,1</b>
<b>Sanoat</b>	<b>%</b>	<b>48,8</b>	<b>51,2</b>	<b>2,4</b>
<b>Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi</b>	<b>%</b>	<b>99,2</b>	<b>98,8</b>	<b>-0,4</b>
<b>Investitsiya</b>	<b>%</b>	<b>44,2</b>	<b>55,4</b>	<b>11,2</b>
<b>Qurilish</b>	<b>%</b>	<b>85,0</b>	<b>84,0</b>	<b>-1,0</b>
<b>Savdo</b>	<b>%</b>	<b>91,7</b>	<b>89,4</b>	<b>-2,3</b>
<b>Xizmatlar</b>	<b>%</b>	<b>74,8</b>	<b>72,1</b>	<b>-2,7</b>
<b>Yuk tashish</b>	<b>%</b>	<b>80,3</b>	<b>75,2</b>	<b>-5,1</b>
<b>Yuk aylanmasi</b>	<b>%</b>	<b>90,1</b>	<b>87,2</b>	<b>-2,9</b>
<b>Yo'lovchi tashish</b>	<b>%</b>	<b>94,7</b>	<b>93,5</b>	<b>-1,2</b>
<b>Yo'lovchi aylanmasi</b>	<b>%</b>	<b>96,3</b>	<b>95,9</b>	<b>-0,4</b>
<b>Eksport</b>	<b>%</b>	<b>85,1</b>	<b>76,5</b>	<b>-8,6</b>
<b>Import</b>	<b>%</b>	<b>91,6</b>	<b>83,6</b>	<b>-8,0</b>

2019 yilning yanvar - sentabrida kichik  
tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy  
ko'rsatkichlari, %

## Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar

	Yanvar – sentabr 2018 yil	Yanvar – sentabr 2019 yil
<b>Surxondaryo viloyati bo'yicha</b>	<b>2253</b>	<b>3593</b>
<b>Termiz shahri</b>	<b>401</b>	<b>684</b>
<i>tumanlar:</i>		
<b>Angor</b>	<b>132</b>	<b>180</b>
<b>Boysun</b>	<b>93</b>	<b>139</b>
<b>Denov</b>	<b>303</b>	<b>501</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>156</b>	<b>247</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>160</b>	<b>236</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>144</b>	<b>192</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>102</b>	<b>141</b>
<b>Oltinsoy</b>	<b>55</b>	<b>121</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>109</b>	<b>153</b>
<b>Termiz</b>	<b>140</b>	<b>302</b>
<b>Uzun</b>	<b>102</b>	<b>199</b>
<b>Sherobod</b>	<b>122</b>	<b>205</b>
<b>Sho'rchi</b>	<b>234</b>	<b>293</b>

2019 – yilning yanvar – sentabrida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Termiz shahrida – 684 ta, Denov tumanida – 501 ta, Termiz tumanida – 302 ta. Sho'rchi tumanida – 293 ta, Jarqo'rg'on tumanida – 247 ta va Qumqo'rg'on tumanida – 236 ta. Sherobod, Uzun, Qiziriq, Angor tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, 205 – 180 tani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich Sariosiyo – 153 ta, Muzrabot – 141 ta, Boysun – 139 ta va Oltinsoy – 121 ta tumanlari tashkil etadi.

**2019 yil yanvar-sentabr holatiga yangi tashkil topgan  
kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar  
bo'yicha ulushi, %**

2019 yil yanvar - sentabr holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Termiz shahri – 19,0 %, Denov tumani - 13,9 %, Termiz tumani - 8,4 %, Sho'rchi tumani – 8,2 %, Jarqo'rg'on tumani - 6,9 % va Qumqo'rg'on tumani – 6,6 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan  
kichik korxona va mikrofirmalar

	yanvar – sentabr 2018 y.	yanvar – sentabr 2019 y.
Jami	2253	3593
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida	333	333
Sanoat	395	806
Qurilish	312	506
Savdo	595	1287
Tashish va saqlash	70	108
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	166	267
Axborot va aloqa	17	41
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	56	45
Boshqa turdag'i xizmatlar	309	200


Ma'lumot uchun: 2019 yil yanvar – sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar eng ko'p  
savdoda – **1287** ta, shuningdek:

**sanoatda** – 806 ta;

**qurilishda** – 506 ta;

**qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida** – 333 ta;

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda** – 267 tani  
tashkil etdi.



**2019 yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha faoliyat  
yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni  
(har 1000 aholiga, birlikda)**

**2019 yil yanvar - sentabr**

**23,1 Termiz shahri**

**5,4 Qumqo'rgon**

**7,1 Oltinsoy**

**7,1 Muzrabot**

**7,8 Angor**

**6,6 Sariosiyo**

**9,8 Boysun**

**13,3 Termiz**

**6,5 Denov**

**6,6 Uzun**


**7,1 Jarqo'rg'on**

**8,3 Sherobod**

**7,2 Qiziriq**


**6,4 Sho'rchi**

**Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni  
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga.**



Quyida, 2019 yilning yanvar-sentabrida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 51,2 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi – 98,8 %, qurilishda - 84,0 %, investitsiyada - 55,4%, savdoda - 91,7 %, eksportda - 76,5 %, importda - 83,6 % va xizmatlar sohasidagi – 72,1 % ulushi aniq ko'rsatilgan.


**2019 - yilning yanvar - sentabrida iqtisodiy faoliyat turlarida kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi**




### Kichik tadbirkorlikning YHMdagi ulushining pasayishi dinamikasi yanvar - sentabr holatiga, %

2019 - yilning yanvar - sentabrida kichik tadbirkorlikning YHMdagi ulushi 79,8 %ni tashkil qildi. (2018 - yilning yanvar - sentabrida 81,9 %).

YHM tarkibida pasayish yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.



### Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan %da)



**2019 yil yanvar – sentabrda kichik tadbirkorlikning  
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, (%)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>51,2</b>	<b>84,0</b>	<b>72,1</b>	<b>55,4</b>
<b>Termiz shahri</b>	<b>34,0</b>	<b>95,8</b>	<b>43,7</b>	<b>78,7</b>
<b>tumanlar:</b>				
<b>Angor</b>	<b>78,4</b>	<b>100,0</b>	<b>85,5</b>	<b>77,6</b>
<b>Boysun</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>97,9</b>	<b>20,1</b>
<b>Denov</b>	<b>67,7</b>	<b>100,0</b>	<b>94,4</b>	<b>52,4</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>33,6</b>	<b>99,3</b>	<b>91,4</b>	<b>35,2</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>68,9</b>	<b>76,4</b>	<b>97,4</b>	<b>61,8</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>91,3</b>	<b>91,7</b>	<b>97,7</b>	<b>86,6</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>82,2</b>	<b>100,0</b>	<b>98,4</b>	<b>48,4</b>
<b>Oltinsoy</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>98,6</b>	<b>53,2</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>61,2</b>	<b>31,3</b>	<b>93,1</b>	<b>30,7</b>
<b>Termiz</b>	<b>88,3</b>	<b>98,1</b>	<b>91,9</b>	<b>58,2</b>
<b>Uzun</b>	<b>98,5</b>	<b>100,0</b>	<b>97,1</b>	<b>72,1</b>
<b>Sherobod</b>	<b>29,5</b>	<b>76,8</b>	<b>95,7</b>	<b>49,6</b>
<b>Sho'rchi</b>	<b>38,1</b>	<b>100,0</b>	<b>97,4</b>	<b>79,6</b>

Hududlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Oltinsoy, Boysun (100,0 %) va Uzun (98,5 %) tumanlari tashkil etadi.

**Qurilishda** – Angor, Boysun, Denov, Muzrabot, Oltinsoy va Sho'rchi (100,0 %) tumanlari tashkil etadi.


**Xizmatlar sohasida** – Oltinsoy (98,6 %), Muzrabot (98,4 %), Boysun (97,9 %), Qiziriq (97,7 %), Sho'rchi va Qumqo'rg'on (97,4 %) va Uzun (97,1 %) tumanlari tashkil etadi.

**Investitsiyada** – Qiziriq (86,6 %), Sho'rchi (79,6 %), va Angor (77,6 %) tumanlari tashkil etadi.




## Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 2019 - yilning yanvar - sentabrida


- 1 Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1476,3 mlrd.so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishning 51,2 %) tashkil qildi va 2018 - yilning yanvar - sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 116,7 %ni tashkil qildi;
- 2 3055,7 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiyligi 55,4 %) o'zlashtirildi va 2018 - yilning yanvar - sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 134,6 %ni tashkil qildi;
- 3 2470,4 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi 84,0 %) bajarildi va 2018 - yilning yanvar - sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 121,5 %ni tashkil qildi;
- 4 3771,6 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (respublika jami xizmatlar hajmining 72.1 %), 2018 - yilning yanvar - sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 107,1 %ni tashkil qildi;
- 5 chakana tovar aylanmasi umumiyligi 89,4 % yoki 6290,3 mlrd. so'mi (o'sish sur'ati 104,2 %ni tashkil qildi) shakllantirildi;
- 6 143,2 mln. AQSH dollarasi (umumiyligi eksport hajmining 76,5 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2018 - yilning yanvar - sentyabriga nisbatan 20,1 mln. AQSH dollariga yoki 16,4 %ga ko'p;
- 7 avtomobil transporti yuk aylanmasining 9,3 %ga (jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 87,2 %) ko'payishi ta'minlanadi;
- 8 yo'lovchi aylanmasining esa 3,0 %ga (umumiyligi yo'lovchi aylanmasining 95,9 %) ko'payishi ta'minlandi.

**Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat)larning,  
jami eksport hajmidagi ulushi, %**

2019 - yil yanvar-sentabr holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat)larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Sariosiyo, Angor va Qumqo'rg'on tumanlari - 100,0 %. Eng past ko'rsatkichni Termiz shahri – 28,1 % ni tashkil etdi.


**Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat)larning,  
jami Import hajmidagi ulushi, %**

2019 yil yanvar - sentabr holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi import (tovar, xizmat)larning jami importdagi eng ko'p ulushi Uzun va Oltinsoy – (100,0 %), Muzrabot – (98,1 %), Denov – (95,7 %), Boysun – (94,8 %), Angor – (92,7 %), Qumqo'rgon – (92,1 %), Sho'rchi – (91,2 %) tumanlari va Termiz shahri – 89,7 % va eng past ko'rsatkichni Qiziriq tumani – 43,0 % ni tashkil etdi.


**2019 yil yanvar – sentabrda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik  
(biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi**

Hududlar bo`yicha eng ko`p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Denov (240,5 mlrd. so`m) va Jarqo'rg'on (220,6 mlrd. so`m) tumanlari hissasiga to`g'ri keladi. Muzrabot (39,2 mlrd. so`m) va Boysun (50,7 mlrd. so`m) tumanlarida ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo`lib qolmoqda.




**2019 yil yanvar-sentabr holatiga jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %**

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Boysun (100,0%), Oltinsoy (100,0%), Uzun (98,5%), Qiziriq (91,3%), Termiz (88,3%), Muzrabot (82,2%) va Angor (78,4%) tumanlarida. Sho'rchi (38,1%), Jarqo'rg'on (33,6%) va Sherobod (29,5%) tumanlarida kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.

**2019 yil yanvar-sentabrda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik  
(biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi**

Hududlar bo`yicha ko`proq chakana tovar aylanmasi hajmi Denov tumani (1420,8 mlrd. so'm), Termiz shahri (1100,3 mlrd. so'm), Sho'rchi (597,2 mlrd. so'm), Sherobod (382,8 mlrd. so'm) va Jarqo'rg'on (358,5 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


**2019 yil yanvar – sentabrda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik  
(biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi  
va o'sish sur'ati**



Hududlar bo`yicha eng ko`p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Termiz shahri (843,6 mlrd. so'm), Boysun (186,3 mlrd. so'm), Denov (185,8 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (176,1 mlrd. so'm), Termiz (166,3 mlrd. so'm), Sariosiyo (163,9 mlrd. so'm), Angor (118,9 mlrd. so'm) hamda Sherobod (108,7 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.




**2019 yil yanvar-sentabrda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik  
(biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati**



Hududlar bo`yicha ko`proq xizmatlar hajmi Termiz shahri (1022,6 mlrd. so'm), Denov (827,9 mlrd. so'm), Sariosiyo (196,3 mlrd. so'm), Sherobod (204,4 mlrd. so'm) va Muzrabot (184,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2019 yil III - chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o`tkazildi. Unda 102 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi. Ulardan sanoat korxonalari - 24 (ishtirok etgan respondentlarning umumiyl sonidan 23,5 %), qurilish - 14 (13,7 %), savdo - 36 (35,3 %), xizmatlar sohasi - 18 (17,6 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi - 10 (9,9 %) tashkil etdi.

**2019 yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**




Hududlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning ulushi Termiz shahrida – 13,7 % (14ta), Denov tumanida – 14,7 % (15ta), Qumqo'rg'on tumanida – 5,9 % (6ta), Sho'rchi tumanida – 8,8 % (9ta), Jarqo'rg'on tumanida – 6,9 % (7ta), Termiz tumanida – 14,7 % (15ta), Angor tumanida – 6,9 % (7ta), Sherobod tumanida - 6,9 % (7ta) ni tashkil qildi.


Tarmoq	ta
sanoat	24
qurilish	14
savdo	36
xizmatlar	18
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	10

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 57,2 % iqtisodiy vaziyatni - qulay va 35,7 % esa qoniqarli deb hisoblanishini mos ravishda savdo sohasida - 36,1 % va 61,1 %, xizmatlar sohasida -33,3 % va 61,1 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 10 % va 80 %, sanoatda - 33,3 % va 62,5 % ni tashkil qilganini ko'rsatdi.

Joriy iqtisodiy vaziyatda pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda -4,2 %, qurilishda - 7,1 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 10,0 %, xizmatlarda -5,6 % va savdoda - 2,8 %ni tashkil qildi.

### Iqtisodiy vaziyatni baholash 2019 yil III chorak uchun, %



Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini  
yaqin uch oyda baholanishi, %

Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 95,8 % - sanoat korxonalari, 72,2 % - savdo, 83,3 % - xizmatlar, 80 % - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 85,7 % - qurilish tarmog'ida kutilmoqda.

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilibotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobjiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

Surxondaryo viloyat statistika boshqarmasi  
Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,  
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: A.Shoberdiyev

Tel.: (76) 223-07-19